

PAPER DETAILS

TITLE: O'ZBEK TILIDA ISMLARNING ERKALASH VA KICHRAYTISH SHAKLLARI

AUTHORS: Zamira IBRAGIMOVA, Svetlana MASHARIPOVA, Bahriddin ABDULAMITOV

PAGES: 182-186

ORIGINAL PDF URL: <https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/490561>



O'ZBEK TILIDA ISMLARNING ERKALASH VA KICHRAYTISH SHAKLLARI

*Zamira İBRAGİMOVA**

*Svetlana MASHARİPOVA***

*Bahriddin ABDULAMİTOV****

Annotatsiya

O'zbek tilida ismlarning lahjaviy va erkalash-kichraytish shakllari deb nomlangan ushbu maqolada ismlarning mazmuni, shevalarda ayrim ismlarning kichraytish, erkalatib chaqirish natijasida ma'no o'zgarishi misollar asosida keltirilgan. Shuningdek, ismlar variantdorligini tadqiq qilish o'zbek ismlari va familiyalari imlosining ba'zi murakkab amaliy muammolarini ilmiy jihatdan to'g'ri hal qilishga imkon beradi.

Kalit So'zlar: Ismlar tizimi, Variantdoshlik, An'anaviy ismlar, Dialektal ismlar, Antroponimiya, Ismlar, Familiyalar, Ota ismlarining tanlanishi.

ÖZBEK TÜRKÇESİNDE İSİMLERİN SEVGİ KÜÇÜLTME BİÇİMLERİ

Özet

Özbek Türkçesinde isimlerin ağızlardaki ve sevgi-küçültme biçimlerini ele aldığımız bu makalede, isimlerin içeriği, ağızlardaki farklı isimlerin küçültme ve sevgi işleviyle kullanılması sonucunda meydana gelen anlam değişimi örneklerle ortaya konulmuştur. Böylece, isimlerin bu varyantlarını inceleme, Özbek ad ve soyadlarının imlasının bazı karmaşık uygulamalı sorunlarını bilimsel bakımdan doğru olarak halletmeye imkân vermektedir.

Anahtar Sözcükler: İsim Sistemi, Varyasyon, Geleneksel İsimler, Lehçe İsimleri, Özel Adlar, İsimler, Soyadlar, Baba İsimlerinin Seçimi.

TYPES OF HYPOCORISTIC AND DIMINUTIVE NAMES IN THE UZBEK LANGUAGE

Abstract

In the article "Types of hypocoristic – diminutive and dialectal names in the Uzbek language" there are given examples of contents of Uzbek names, abridgements of some names in dialects and content change as a result of using hypocoristic – diminutive names. It gives the opportunity to define the correct content of names by investigating the variance of Uzbek names and spelling of some problematic practical problems from the scientific point of view.

Key Words: System Of Names, Variance, Traditional Names, Dialectal Names, Anthropological Names, Surnames, Selection of Fathers' Names.

* Doç. Dr., Berdak Karakalpak Devlet Üniversitesi, Özbek Filolojisi Bölümü, Nukus-Karakalpakistan/ÖZBEKİSTAN, el-mek: zamira7070@mail.ru

ORCID ID: <https://orcid.org/0000-0002-7689-8975>

** Arş. Gör., Berdak Karakalpak Devlet Üniversitesi, Özbek Filolojisi Bölümü, Nukus-Karakalpakistan/ÖZBEKİSTAN, el-mek: masharipova.s.t@mail.ru

ORCID ID: <https://orcid.org/0000-0002-2157-034X>

*** Yüksek Lisans Öğrencisi, Berdak Karakalpak Devlet Üniversitesi, Özbek Filolojisi Bölümü, el-mek: abdulamitov.bahriddin@umail.ru

ORCID ID: <https://orcid.org/0000-0003-4714-1604>

Hozirgi o'zbek ismlarining lug'aviy tizimini umumiy tarzda tavsiflash bosqichi bosib o'tildi deyish mumkin. Shu munosabat bilan endilikda antroponimiyasi tizimidagi ba'zi ichki qonuniyatlarni, sistemaviy munosabatlarni teranroq o'rganish ehtiyoji tug'ilmoqda. Mana shunday muammolardan biri – o'zbek antroponimiyasi tizimining variantdoshligi hodisasidir

Ismlar variantdoshligi, avvalo, o'zbek antroponimiyasi tizimidagi an'anaviy- tarixiy hamda yangi nomlar orasida yuzaga keladi. Ismlar variantdoshligini tadqiq qilish adabiy ism va dialektal ism kabi tushunchalar mohiyatini anglab yetishga imkon beradi. Ayniqsa, ismlar variantdoshligini tadqiq qilish o'zbek ismlari va familiyalari imlosining ba'zi murakkab amaliy muammolarini ilmiy jihatdan to'g'ri hal qilishga imkon beradi.

O'zbek antroponimiyasi tizimini tadqiq qilishda E.Begmatov, G'.Sattorov, N.Husanov, M.Norqulova va S.Rahimovlarning tadqiqotlari ko'zga tashlanadi.

Ismlar variantdoshligi, avvalo, o'zbek antroponimiyasi tizimidagi an'anaviy- tarixiy hamda yangi nomlar orasida yuzaga keladi. Ismlar variantdoshligini tadqiq qilish adabiy ism va dialektal ism kabi tushunchalar mohiyatini anglab yetishga imkon beradi. Ayniqsa, ismlar variantdoshligini tadqiq qilish o'zbek ismlari va familiyalari imlosining ba'zi murakkab amaliy muammolarini ilmiy jihatdan to'g'ri hal qilishga imkon beradi.

O'zbek ismlarining lug'aviy - lahjaviy va imloviy variantlariga oid fikrlar E.Begmatovning "O'zbek ismlari" kitobida yanada ixcham va aniq holda o'z ifodasini topgan¹. Kitob muallifining fikricha, ismlar imlosi doirasidagi variantlar, asosan, nomlarning to'g'ri-noto'g'ri shakllarida yozilishi bilan aloqadordir. Imloviy nuqson deb baholanishi mumkin bo'lgan antroponimik shakllarni yuzaga keltiruvchi omillar haqida E.Begmatov quyidagicha yozadi: "Ismlar imlosidagi xato shakllarni quyidagi sabablarga bog'lab izohlash mumkin:

1. Ism tarkibidagi tovushlarning o'zgarishi bilan;
2. Kishi nomlarini shaklan qisqarishi, torayishi bilan;
3. Mahalliy, shevaviy ismlarni yozish bilan;
4. Ismlarga qo'shiluvchi ba'zi unsurlarning imlosi bilan;
5. Familiya, ota ismini yasovchi qo'shimchalarning nomga qo'shilishi xususiyatlari bilan"².

1998 yili E.Begmatovning "O'zbek ismlari ma'nosi" nomli lug'atda o'zbek antroponimiyasi tizimiga xos variantdoshlikning muhim ko'rinishlari ham o'z mujassamini topgan. Bular ismlarning fonetik, imloviy, lug'aviy, lahjaviy, rasmiy va norasmiy variantlaridir.

Ma'lumki, har qanday til doirasida u yoki bu darajada xalq sheva va lahjalari mavjud. Tilning ushbu ijtimoiy ko'rinishlari, odatda, adabiy tilga qarama-qarshi qo'yiladi, chunki adabiy tilning meyorlari shuni talab qiladi. Ammo antroponimik tizimni, uning onomastik birliklarini tamoman adabiyashtirish, uni og'zaki til, xalq sheva va lahjalari ta'siridan tamoman xolos qilib bo'lmaydi. Bunga sabab ismlar oilalarda, til jihatdan ushbu oilalar mansub bo'lgan lahja va shevalar muhitida yaratiladi va bolaga beriladi. Ism uchun asos bo'ladigan apellyativ va undan yasalgan ismning o'zi ham nomni yaratgan shaxslarning mahalliy tili xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Mana shu bog'liqlik ismlarning, ular shaklining nafaqat adabiy til va lahjalararo farqini, balki sheva va lahjalararo o'zgachiliklarini yuzaga keltiradi. Bu, asosan, ikki holatda ko'rinadi: 1) ismlarning qisqargan (toraygan) shakllarining mavjudligi; 2) antroponimik tizimda turli lahjalarga oid nomlarning mavjudligi. Ko'p hollarda milliy tillardagi ismlar fondi "o'zbek ismlari", "tojik ismlari", "qozoq ismlari", "qoraqalpoq ismlari" kabi umumiy tarzda

¹ Begmatov Э. Ўзбек исмлари. – Тошкент: Бош қомуслар таҳририяти, 1991. – 21 б.

² Begmatov Э. Ўша асар.

tavsiflanadi. Bunda nomlarga umuman milliy til fondi sifatida yondashiladi, antroponimiya materialiga ham adabiy til materiali (ismlarning adabiy til meyoriga mos tushuvchi shakllari) koʻzda tutiladi va ham xalq tili – sheva hamda lahjalar materiali sifatida qaraladi. (Bunda maʼlum lahja va shevalarda uchraydigan ismlar yoki shaklan sheva hamda lahjalar xususiyatiga mos boʻlgan ismlar koʻzda tutiladi). Lahjaviy, yaʼni mintaqaviy antroponimlarni umuman olganda uch xususiyat xarakterlaydi:

1. Ismning adabiy tildagidan farqlanuvchi lahjaviy shakli mavjud boʻladi; *Jamanbola* (ad. Yomonbola), *Qolbuvi* (ad. Xolbuvi) kabi.

2. Biror sheva yoki lahjagagina xos, yaʼni mintaqaviy ism uchrashi mumkin: *Gʻuchchi//Gʻoʻchchi* (qipchoq shevasiga xos), *Mengli* (qipchoq shevasiga xos), *Toʻti*, *Toʻtixon* (oʻgʻuz shevasiga xos), *Soʻna*, *Soʻnaxon* (oʻgʻuz lahjasiga xos) va b.

3. Lahja va shevalarda ismlar aksariyat holda qisqargan shaklda qoʻllaniladi.

Ismlarning erkalash-qisqarish shakllari (variantlari) asosan xalq tili shevalarida yuzaga keladi. Bu ikki holatda koʻrinadi: a) mana shunday shakllarning shevaviy fonetika qonuniyatlariga talaffuzda moslashganida; b) qisqargan shakllarning shevalararo farq qilishida: (*Jumash* – qipchoq shevasida; *Jummi* oʻgʻuz lahjasi); *Sherna* (*Shernazar*), *Sheppʻ* (*Sharifa*), *Rejap* (*Rajab*, *Rajabali*), *Jummʻ*, *Jumaq*, *Jumash* (*Jumaniyoz*, *Jumanazar*) kabi.

E.Begmatov oʻzbek antroponimiyasi haqida quyidagilarni yozadi: “Oʻzbek antroponimiyasi shuni koʻrsatadiki, ismlarning qisqarishi ikki obyektiv ehtiyoj tufayli yuzaga keladi: 1) kishini erkalab munosabatda boʻlish va buni uning ismi orqali ifodalash; 2) talaffuzi qiyin (ayniqsa oʻzlashma qoʻshma ismlar)ning talaffuzini osonlashtirish maqsadida. Masalan: *Sarviniso*, *Tojiniso*, *Muhammad* ismlarini Sarvi, Toji, Mamad tarzida qisqartiriladi³”.

Oʻzbek tilshunoslari oʻzbek ismlarining qisqargan va erkalash-kichraytish shakllariga ismlar imlosini tadqiq qilish va meyorlash imkoniyatlarini oʻrganish munosabati bilan toʻxtalgan, ularni imloviy normalar nuqtai nazaridan baholaganlar. Mana shunday ekan, oʻzbek tilida erkak va ayollar ismiga qoʻshilib, erkalash-kichraytish shakllarini yasovchi qoʻshimchalarga quyidagi misollar keltiramiz:

1. Erkaklar ismiga qoʻshilib hurmatli munosabatni ifoda qiluvchi qoʻshimchalar: *-bek*: (*Otabek*, *Shodibek*), *-boy*: (*Tursunboy*, *Qodirboy*, *Qurolboy*), *-jon*: *Ahmadjon*, *Mansurjon*, *Botirjon*, *-mirza*: (*Boymirza*, *Xolmirza*, *Joʻlmirza*), *-qul*: (*Mamatqul*, *Begimqul*, *Tursunqul*) kabi.

2. Ayollar ismiga qoʻshiluvchi affiksalar: *-xon*: (*Muhabbatxon*, *Gulnozxon*, *Oyshaxon*), *-niso*: (*Zebiniso*, *Oyniso*), *-bib*: (*Oybibi*, *Xatichabibi*), *-bonu*: (*Mohirabonu*, *Mubinabonu*, *Asalbonu*) va b. Bunday qisqarish hodisasi, ayniqsa, tilning antroponimik tizimida sermahsul boʻlib, oʻziga xos xususiyatlariga ega. Oilalarda, jamoalarda va ijtimoiy hayotning boshqa barcha sohalarida inson ismi, familiyasi har kuni, har onda koʻp bor takrorlanib turadi. Kishining ismini tilga olish rasmiy, norasmiy boʻlishi mumkin. Bunday qoʻllanishlarda norasmiy ishlatishlar, yaʼni moddiy, maʼnaviy va intim holatlar ustun turadi. Shaxsning ismini aytib unga hurmat izhor qilish, yaqinlikni bildirish uni erkalash, suyish mumkin. Ayniqsa, otionalarning oʻz farzandini erkalashi, suyushganlarining intim muomalalarida ismni turli shakllarda oʻzgartirib takrorlash muhim oʻrin tutadi. Masalan, *Dilbar* ismini *Dilash*, *Dilashim*, *Dillim*, *Dilishim*, *Dilyam*; *Aziza* ismi *Aziy*, *Azzi*, *Azizam* va boshqa shakllarda talaffuz qilinadi. Baʼzi hollarda mana shunday erkalash-suyish tufayli ism tamoman oʻzgacha shaklga kirib ketadi va uning oʻnlab erkalash shakllari yuzaga keladi.

Kuzatishlar shuni koʻrsatadiki, oʻzbek antroponimiyasida bittta ism bir va undan ortiq variantlarda qisqarishi mumkin. Ismlarning qisqarish miqdori shaxs nomini qisqartirib

³ Бегматов Э. Киши номлари имлоси.-Тошкент: Фан. 1970; Бегматов Э. Исм-шариф қандай ёзилади? // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1990. – 20 апрель.

aytuvchining xohishi va topqirligiga, shuningdek ismni qisqartirish imkoniyati va chegarasiga ko'ra kam yoki ko'p bo'lishi mumkin. Shuningdek, ushbu holat ism yashayotgan muhit lahja va shevalarning xususiyatiga, mahalliy aholining bolaning ismini aytib erkalash an'analarining xususiyatlariga ham bog'liqdir.

Ismning to'liq shakli	Ismning qisqargan shakli
Bir variantli qisqartma ismlar: Polvonniyoz Subhon O'g'ilbo'lsin O'rinposhsha Baxtiyor Boboshukur Og'aboy Haqqul Otashukur Otanazar Dadaxon Alisher Gavhar Intizor	Polyoz Subhi Ulbo's O'rish Baxti Bobash Og'g'i Aqqul Otash Otan Dadash Alish Gavvi Intush
Ikki variantli qisqartmalar Ollobergan Karimboy Jobborbergan Ro'zibeka Sayidniyoz Jumanazar Boboniyoz Zuhra Onagul (Anagul) Abdumuhammad Abduaziz, Abduazim Bobotursin	Ollak, Olla Kerri, Kerim Jobbi, Joboq Ro'zka, Ro'zika Setyoz, Seytyoz Jummi, Juman Baniyoz, Banniyoz Zo'ra, Zavra Anish, Anush Abdumamat, Abdumat Abdaz, Abdazim Babat, Bobot

Jumaqul	Jumak, Jumaq
Jahonniyoz	Joniyoz, Jonniyoz
Bobomuhammad	Bumat, Buvamatva boshqalar.

O'zbek antroponimiyasida erkaklar va ayollar uchun bir xil qo'yiladigan ismlar bor. Masalan, *Asal (erkak) – Asal (ayol)*, *Tursun (erkak) – Tursun (ayol)*, *Karomat (erkak) – Karomat (ayol)*, *Iqbol (erkak) – Iqbol (ayol)*, *Dilshod (erkak) – Dilshod (ayol)* va b. Ammo nom berish amaliyotida o'g'il bolalar va qiz bolalarga barobar qo'yiluvchi nomlarni shaklan farklashga intilish mavjudligini, bu uchun turli usullardan foydalanilishini ko'ramiz. Bunda keng tarkalgan usullardan ayollik jinsiga ishora qiluvchi asli arabcha bo'lgan *-a* va *-ya (-iya)* qo'shimchalaridan foydalanishdir.

Mana shu kabi variantlarni ko'plab keltirish mumkin. Keltirilgan variantlarning motivativ ma'nosi ularga asos bo'lgan asosiy ism motivi bilan bir xil bo'ladi: *Tursun* ismining variantlarida bolaning yashab ketishini istash, o'g'il ismining variantlarida o'g'il ko'rish orzusi motivi ifodalangan. Mana shu motivlar ushbu ismlardan hosil bo'ladigan barcha variantlar uchun ham tegishlidir.

Xullas, yuqorida keltirilgan ishlarning aksariyatida antroponimlarning qisqargan va erkalash shakllari nomlarning yasaliishi, antroponimlarning fonetik va yasaliish xususiyatlari, lahjaviy belgilari, qolaversa, imloviy normalash imkoniyatlari nuqtai nazaridan o'rganilgan, ammo variantdorlik nuqtai nazaridan tahlil qilingan emas. Antroponimik variantlarni yuzaga keltiruvchi omillardan yana biri ismlarning turli lahja va shevalarda mahalliy shakllarga ega bo'lishidir.

Adabiyotlar

ABDULLAYEV, F., (1966). *Xorazm Shevalari*. Toshkent: Fan.

BEGMATOV, E., (1970). *Kishi Nomlari Imlosi*. Toshkent: Fan.

BEGMATOV, E. A., (1972). *O'zbek Ismlari Imlosi (Ruscha Yozilish Masalalari)*. Toshkent.

BEGMATOV, E., (1990). *Ism-sharif qanday yoziladi?. O'zbekiston Adabiyoti va San'ati*. 1990, 20 apr.

BEGMATOV, E., (1991). *O'zbek Ismlari*. Toshkent.